


SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2022- yil yanvar-oktabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **642,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan **80,5** mln. AQSh dollariga yoki **14,3 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollar)

	2021- yil	2022- yil	O'sish surati, foizda	jamiga nisbatan, foizda
Tashqi savdo aylanmasi	562,4	642,9	114,3 %	x
Eksport	193,6	258,7	133,6 %	100,0
tovarlar	190,9	256,1	134,1	99,0
xizmatlar	2,7	2,6	96,4	1,0
Import	368,7	384,2	104,2 %	100,0
tovarlar	368,7	384,2	100,0 %	100,0
xizmatlar	00	0,0	0,0	0,0
Saldo	-175,1	-125,4	x	x




Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovalarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **258,7** mln. AQSh dollariga (**33,6** % ga ko'paydi) va import hajmi **384,2** mln. AQSh dollariga (**4,2** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **125,4** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2022-yil yanvar-oktabr, ulushi, foizda.)



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI




Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-oktabr oylarida **642,9** mln. AQSh dollarini qiyamatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **80,5** mln. AQSh dollariga ko'paydi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Tojikiston, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmogda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Italiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2022-yil yanvar-oktabr)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (**98,5** mln. AQSh dollar), Qozog'iston (**178,7** mln. AQSh dollar), Xitoy Xalq Respublikasi (**107,5** mln. AQSh dollar), va Afg'oniston (**91,2** mln. AQSh dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo viloyati jahoning **65** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA da salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**15,3** %), Qozog'iston (**27,8** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**16,7** %), Afg'oniston (**14,2** %), Italiya (**7,0** %), Tojikiston (**2,2** %) va Turkiya (**4,5** %) qayd etilgan.

SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollar)



Davlatlar	2020	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	101,2	140,1	98,5
<i>Eksport</i>	28,9	36,1	50,6
<i>Import</i>	72,3	104,0	47,9
Qozog'iston	102,1	137,6	178,7
<i>Eksport</i>	20,7	16,8	20,1
<i>Import</i>	81,4	120,8	158,6
Xitoy Xalq Respublikasi	86,2	96,6	107,5
<i>Eksport</i>	20,0	40,3	41,0
<i>Import</i>	66,2	56,3	66,4



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollarri)



	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	Afg'oniston	46,7	68,2	91,2
	<i>Eksport</i>	46,7	68,2	90,2
	<i>Import</i>	-	-	1,0
	Pokiston	4,2	8,0	10,8
	<i>Eksport</i>	4,2	7,5	9,7
	<i>Import</i>	-	0,5	1,1
	Litva	7,1	2,8	2,7
	<i>Eksport</i>	0,6	-	-
	<i>Import</i>	1,5	2,8	2,7
	Qirg'iz Respublikasi	3,3	4,0	9,5
	<i>Eksport</i>	1,1	3,2	2,7
	<i>Import</i>	2,2	0,8	6,8
	Turkiya	16,8	19,7	28,9
	<i>Eksport</i>	1,1	7,6	16,2
	<i>Import</i>	15,7	12,1	12,7
	Italiya	-	4,8	44,7
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	4,8	44,7
	Germaniya	37,1	23,8	7,9
	<i>Eksport</i>	0,1	0,1	1,2
	<i>Import</i>	37,0	23,7	6,7
	Tojikiston	4,3	4,6	13,9
	<i>Eksport</i>	3,7	4,2	11,9
	<i>Import</i>	0,6	0,4	2,0



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022-yil yanvar-oktabr)



	Ming. AQSh dollarri	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	642 879,0	114,3
Boyovut t.	44 436,1	200,7
Guliston t.	15 240,3	85,8
Mirzaobod t.	30 322,5	156,0
Oqoltin t.	9 360,8	109,5
Sardoba t.	7 838,4	134,5
Sayxunobod t.	41 770,1	81,8
Sirdaryo t.	240 585,4	170,6
Xovos t.	22 481,1	102,8
Guliston sh.	69 236,4	99,0
Shirin sh.	2 039,9	2,5
Yangiyer sh.	158 450,3	128,9

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollarri

Sirdaryo t.– 240 585,4

Yangiyer sh. – 158 450,3

Guliston sh. – 69 236,4

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollarri

Oqoltin t.– 9 360,8

Sardoba t.– 7 838,4

Shirin sh. – 2 039,9

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **37,4 %** ulush bilan **240 585,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,3 %** ulush bilan **2 039,9** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **48,2 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi **4,8 %**. ga kamaygan.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(2022- yil yanvar-oktabr mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida 2021- yil ulishiga nisbatan **26,0 %** ga ko'payib va jami TSAdagi ulushi **51,8 %** ni tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-oktabr, ming AQSh dollari)



Rossiya federatsiyasi

 TSA – 98 524,0
 eksport – 50 609,5
 Import – 47 914,5

Qozog'iston

 TSA – 178 748,1
 Eksport – 20 114,8
 Import – 158 633,3

Qirg'iz Respublikasi

 TSA – 9 474,4
 Eksport – 2 700,8
 Import – 6 773,6

Turkmaniston

 TSA – 4 972,1
 Eksport – 787,8
 Import – 4 184,3

Tojikiston

 TSA – 13 930,2
 Eksport – 11 925,9
 Import – 2 004,3

Ukraina

 TSA – 1 439,3
 Eksport – 968,2
 Import – 471,1

Belarus Respublikasi

 TSA – 1 354,9
 Eksport – 569,6
 Import – 785,3

Ozarbayjon

 TSA – 1 164,4
 Eksport – 1161,6
 Import – 2,8

1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga a'zo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-oktabr holatiga **309 758,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **88 837,8** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **220 921,1** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**31,8 %**), Qozog'iston (**57,7 %**), Qirg'iz Respublikasi (**3,1 %**), Turmaniston (**1,6 %**) va Tojikiston (**4,5 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



SIRDARYO VILYOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-oktabr, ming AQSh dollarari, ulushi, foizda)



Jami tashqi savdo
aylanmasidagi ulushi

44,8 %

Jami eksportdagi ulushi

28,6 %

Jami importdagi ulushi

55,7 %

2020-yil 11-dekabrdan O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyoga iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **288 101,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **73 994,7** ming AQSh dollarari, import hajmi esa **214 106,7** ming AQSh dollariga yetdi.




SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI (2022- yil yanvar-oktabr)



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning eksportyrlari soni **165** tani tashkil etib, ular tomonidan **258 725,5** ming AQSh dollari qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan **33,6 %** ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, foizda)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,4 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**33,5 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**45,4 %**) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar (**5,6 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.





SIRDARYO VILOYATI XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-oktabr, oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O’sish sur’ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami eksport	193 640,9	258 725,5	140,2	133,6	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	89 124,8	116 918,0	114,5	131,2	46,4	45,4
Ichimliklar va tamaki	25,6	30,4	2,3 m.	118,8	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	13 175,0	10 848,2	110,7	82,3	6,9	4,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	0,0	45,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o’simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	854,5	0,0	0,0	0,0	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	4 103,8	14 330,8	77,4	3,5 m.	2,1	5,6
Sanoat tovarlari	61 244,6	86 397,5	2,2 m.	141,1	31,9	33,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	5 592,9	7 455,4	3,1 m.	133,3	2,9	2,9
Turli hil tayyor buyumlar	17 617,7	19 287,9	145,7	109,5	9,2	7,5
Xizmatlar	1 189,0	1 634,6	2,2 m.	137,5	0,6	0,6



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-oktabr oylarida **258 725,5** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **65 084,6** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-oktabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollarari	2021- yilga nisbatan, foizda
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	24 994,5	112,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	88 533,0	136,9
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	528,8	61,1 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	273,5	5,9 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,2	21,5
Tamaki va tamaki mahsulotlari	30,2	122,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	6 066,8	54,7
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina xam)	159,6	2,5 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	349,4	47,6
Qog'oz massasi va makulatura	3 512,7	3,7 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Ko'mir, koks va briketlar	38,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7,0	0,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-oktabr)



XSST bo'lumi nomi	Ming AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, foizda
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	854,5	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	5 449,9	162,4
Birlamchi shakilda bo'lмаган plastmassalar	174,9	92,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va boyo'qlar	145,1	124,2
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	8 339,7	19,0 m.
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xhash mahsulotlar	60 399,0	152,7
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , muyna	13 504,1	104,9
Ruda bo'lмаган qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	10 104,7	139,5
Mashinalar va transport asbob-uskunaları		
Aniq sohalar uchun mahsus mo'ljallangan mashinalar	1 050,3	4,0 m.
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lмаган qismlari ham)	240,0	2,5 m.
Sanoat uchun mahsus bo'lмаган mashinalar va ularning detallari	5 837,9	145,7
Turli hil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	16 771,7	100,33
Har hil tayyor buyumlar	1 434,4	188,9






MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2022- yil yanvar-oktabr, mln AQSh dollarri, ulushi, foizda)



So'nggi yiliarda MDH mamlakatlariiga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2021-yilning yanvar-oktabrda **32,5 %** ni 2022- yilning yanvar-oktabrda **34,3 %** ni tashkil etdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **65,7 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR NING ULUSHI (2022- yil yanvar-oktabr, foizda)

2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiyligi hajmining **35,0 %**), Rossiya Federatsiyasi (**19,6 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**15,9 %**), Qozog'iston (**7,8 %**), Turkiya (**6,3 %**), Tojikiston (**4,6 %**) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **10,8** foizni tashkil etmoqda.

SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-oktabr, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSh dollarri		O'sish sur'ati, foizda		O'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Afg'oniston	68 228,8	90 174,5	145,9	132,2	5	4
Rossiya Federatsiyasi	36 118,6	50 609,5	125,1	140,1	6	3
Xitoy Xalq Respublikasi	40 324,6	41 043,1	2,0 m.	107,8	2	6
Qozog'iston	16 822,1	20 114,8	81,4	119,6	7	5
Turkiya	7 634,4	16 239,6	6,9 m.	2,1 m.	1	2
Tojikistan	4 210,6	11 925,9	179,8	2,8 m.	3	1
Qirg'iz Respublikasi	3 236,5	2 700,8	162,6	83,4	4	7



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-oktabr)



	Ming. AQSh dolları	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	258 725,5	133,6
Boyovut t.	19 259,6	157,6
Guliston t.	14 002,3	89,0
Mirzaobod t.	22 129,3	186,3
Oqoltin t.	6 485,4	166,6
Sardoba t.	2 948,7	133,2
Sayxunobod t.	24 154,2	147,9
Sirdaryo t.	72 470,8	152,2
Xovos t.	14 554,0	120,8
Guliston sh.	20 213,4	91,6
Shirin sh.	1 237,5	38,1
Yangiyer sh.	60 152,6	134,0

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dolları

Sirdaryo t.– 72 470,8

Yangiyer sh. – 60 152,6

Sayxunobod t.– 24 154,2

Eng quyi hajm,
ming AQSh dolları

Oqoltin t.– 6 485,4

Sardoba t.– 2 948,7

Shirin sh. – 1 237,5

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **28,0 %** ulush bilan **72 470,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksport tarkibida eng past ulushni Shirin shahri **0,5 %** ulush bilan **1 237,5** ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoxda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **24 994,5** ming AQSh dollari qiymatli **41 341,7** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan **19 082,0** ming AQSh dollarida ko'paygani kuzatilib, **85,7 %** ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **18 031,0** ming AQSh dollariga teng **25 688,6** tonna sabzavot, shuningdek, **6 963,5** ming AQSh dollari qiymatidagi **15 653,1** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-oktabr)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **61,2 %** ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-oktabr)

Davlatlar	Tonna	ming AQSh dollarari	ulushi, foizda *
Afg'oniston	1 395,0	982,2	3,9
Pakistan	2 888,7	6 791,1	27,2
Rossiya Federatsiyasi	2 086,6	2 647,4	10,6
Qozog'iston	24 032,3	5 859,1	23,4
Xitoy Xalq Respublikasi	2 736,0	2 472,8	9,9
Eron (Islom Respublikasi)	1 681,3	1 758,3	7,0

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **27,2 %** ga tashkil etdi.)




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-oktabr)



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi **384 153,5** ming AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan **104,2 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**40,0 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**17,9 %**) hamda mashinalar va transport asbob-uskunalar (**25,1 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-oktabr ulushi, foizda)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15 439,0** ming AQSh dollariga ko'payib, **384 153,5** ming AQSh dollarini tashkil etdi.





SIRDARYO VILOYATI XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-oktabr, oyлari yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSh dollarri		O’sish sur’ati, foizda		Umumiy hajmga nis-batan, foizda	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami import	368 703,4	384 153,5	112,4	104,2	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	113 322,2	153 703,5	142,7	135,6	30,7	40,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	11 613,3	18 354,8	97,7	158,0	3,1	4,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	51 187,2	11 914,4	3,2 m.	23,3	13,9	3,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	9 939,0	5 711,9	13,0 m.	57,5	2,7	1,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	41 114,8	68 820,8	85,4	167,4	11,2	17,9
Sanoat tovarlari	24 141,0	22 827,8	110,4	94,6	6,5	5,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	110 061,2	96 491,8	89,5	87,7	29,9	25,1
Turli hil tayyor buyumlar	7 324,7	6 328,5	40,2	86,4	2,0	1,6
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-oktabr oylarida **384 153,5** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **15 439,0** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-oktabr)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollarri	2021-yilga nisbatan, foizda
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	129 007,1	143,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	362,8	107,7
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	10 134,0	2,5 m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	7 671,4	75,9
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	6 158,5	134,3
56 bo'limga kiritilmagandan tashqari o'g'itlar uchu xom-ashyolar	2 053,2	2,3 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	6 603,5	137,4
To'qimachilik tolalari va ularning chqindilari	1 219,2	167,0 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 127,6	4,9
Ko'mir, koks va briketlar	9 786,8	121,8



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-oktabr)




XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollarari	2021-yilga nisbatan, foizda
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	2 715,2	104,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	36 311,3	3,2 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7 299,3	3,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va buyoklar	10 669,4	112,1
O'g'itlar (272 guruxga kiritilganlardan tashkari)	1 698,4	17,7 m.
Noorganik kimyo moddalarini	5 930,5	121,6
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	5 840,0	159,1
Metalldan tayyorlangan buyumlar	1 768,8	51,1
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2 269,9	103,2
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashkari)	10 083,8	88,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	74 219,3	135,2
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	14 702,4	78,4
Avtomobilarning ehtiyyot qismlari	2 532,9	96,0
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshka joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshka joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'limgan qismlari xam)	3 075,9	35,7
Turli hil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 347,7	32,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalarini uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2 550,5	160,8
Har hil tayyor buyumlar	1 373,3	147,8
Xayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	5 699,3	57,3



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(2022- yil yanvar-oktabrida, mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **49** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Italiya, Qozog'iston, Germaniya, Koreya Respublikasi, va Turkiya) jami importning **90,1 %** ulushini tashkil qildi, bu **346 151,1** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



**VILOYATNING
IMPORTIDA ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARNING
ULUSHI (2022- yil
yanvar-oktabr, foizda)**





SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-oktabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSh dollarri		O'sish sur'ati, foizda		O'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	103 988,7	47 914,5	143,7	46,1	2	6
Qozog'iston	120 817,4	158 633,5	147,5	131,1	1	3
Xitoy Xalq Respublikasi	56 303,7	66 443,8	85,8	118,0	4	4
Italiya	4 780,5	44 254,4	116,4	9,2 m.	3	1
Koreya Respublikasi	2 097,9	9 462,1	77,9	4,5 m.	5	2
Turkiya	12 139,8	12 741,9	64,3	104,9	6	5
Germaniya	23 725,1	6 701,1	49,7	28,2	7	7

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2022- yil yanvar-oktabr)



	Ming AQSh dollarari	O'sish sur'ati, foizda
Sirdaryo viloyati	384 153,5	104,2
Boyovut t.	25 176,5	253,8
Guliston t.	1 238,0	61,0
Mirzaobod t.	8 193,2	108,5
Oqoltin t.	2 875,4	61,8
Sardoba t.	4 889,7	135,3
Sayxunobod t.	17 615,9	50,7
Sirdaryo t.	168 114,6	179,9
Xovos t.	7 927,1	80,8
Guliston sh.	49 023,0	102,4
Shirin sh.	802,4	1,0
Yangiyer sh.	98 297,7	126,0

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollarari

Sirdaryo t.– 168 114,6

Yangiyer sh. – 98 297,7

Guliston sh. – 49 023,0

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollarari

Oqoltin t.– 2 875,4

Guliston t. – 1 238,0

Shirin sh. – 802,4

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **43,8 %** ulush bilan **168 114,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,2 %** ulush bilan **802,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA TIRIK HAYVONLAR IMPORTI



2022- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hajmi **153 703,5** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,6** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **40,0 %** ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalarini asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA TIRIK HAYVONLAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-oktabr)



84,8%

Qozog'iston

130 388,0 ming.
AQSh dollari

7,3%

Rossiya Fedratsiyasi

11 151,5 ming.
AQSh dollari

3,9%

Qirg'iz
Respublikasi

5 938,8 ming.
AQSh dollari

0,4%

Turkiya

562,0 ming.
AQSh dollari

0,3%

Germaniya

431,5 ming.
AQSh dollari

SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2022- yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **22 827,8** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,4** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **5,9 %** ga yetdi.

SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-oktabr)



Rossiya Federatsiyasi
11 812,8 ming. AQSh dollari
ulushi – 49,1 %



Xitoy Xalq Respublikasi
4 297,5 ming. AQSh dollari
ulushi – 18,8 %



Qozog'iston
5 016,0 ming. AQSh dollari
ulushi – 21,9 %



Turkiya
987,1 ming. AQSh dollari
ulushi – 4,3 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**10 083,8** ming AQSh dollari), cho'yan va po'lat (**5 840,0** ming AQSh dollari), va ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**2 269,9** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 236 86 34

